
Obodonlashtirish - xalqimizga xos an'ana

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz

Bunyodkorlik, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, bog' yaratish xalqimizning azaliy xislatlaridan sanaladi. Zero, o'zimiz yashab turgan joyni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tufayli ko'nghimiz shodlikka to'ladi. Eng aziz, eng ulug' bayram oldidan o'tkazilayotgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq hayriya hashari tumanimizda ham uyushqoqlik bilan o'tkazilmoqda. Umumxalq xayriya hasharida tuman aholisi faol ishtirok etib, o'zlari yashayotgan, mehnat qilayotgan, ta'lim olayotgan hududlarni, ariqlar, ko'chalar, hiyobonlarni, qabristonlarni tozalash, umuman, katta hajmdagi obodonlashtirish ishlarini amalga oshirmoqda. Xayriya hashari tumanning har bir go'shasini ozoda va orastaligini, pokiza va obodligini ta'minlash, xalqimizning keksalar, yetim-esirlar va nogironlarga mehr-muruvvat ko'rsatishdek azaliy qadriyatlarini davomiyligining yorqin namunasi bo'lmoqda. Xususan, Oq-er MFY Gulzor ko'chasida ham obodonlashtirish ishlari olib borilib, fuqarolar unda faol ishtirok etishdi.

2022-08-15 06:33:53